

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70210403 – Amaliy grafika  
magistratura mutaxassisligining*

*MALAKA TALABI*

Toshkent-2024

UZBEKISTON  
Buyruq № \_\_\_\_\_  
20\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

**ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:**  
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024- yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....	6
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi .....	7
	Bibliografik ma'lumotlar .....	11
	Kelishuv varag'i.....	12

## **1. Umumiy tavsifi**

70210403 – Amaliy grafika magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70210403 – Amaliy grafika magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, "Tasviriy oyna" ijodiy uyushmasi, davlat va nodavlat reklama agentliklari, "O'qituvchi", "O'zbekiston", "G'.G'ulom" nashriyotlari hamda xususiy korxonalar "ZIYNAT DESIGN" MCHJ, "Alvon – Plus" MCHJ, "Art Shop" MCHJ larda kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

- Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- O'zbekiston Badiiy akademiyasi;
- Respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktablari;

- Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi;
- P.Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi;
- davlat va nodavlat reklama agentliklari;

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- Ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- pedagogik faoliyat;
- axborot-tahliliy faoliyat;

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70210403 – Amaliy grafika mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishi;

mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar, yoki ilmiy-tadqiqot va ijodiy loyihalarni tahlil qilishi;

soha bo'yicha ilmiy seminarlar jarayonida ishtirok etishi;

ilmiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlash ;

kasbga oid muammolarni ilmiy jihatdan tahlil etish va yechimlarini amaliyotga tadbiq etish;

o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha modellar va metodlarni yaratish va ishlab chiqishi;

tadqiqotlar bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referat va bibliografiyalarni tuzish;

mutaxassisliklari doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim muassasalari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida doktorant yoki mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

Amaliy grafika kompozitsiyalarini loyihalash va kompozitsiya turlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot, korxonalaridagi dizayn sohasiga oid bo'limlarni boshqarish;

tashkilot va korxonalar brendini shakllantirish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

texnologik jarayonlarni ishlab chiqishi va ularni qo'llashi;

loyihaviy va dastur hujjatlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalaridagi pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

elektron o'qitish usullarini egallashi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi;

fanlar bo'yicha zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlashi va rasmiylashtirishi;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;

o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat bo'yicha o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

xorijiy tajribalarni o'rganish hamda o'quv jarayoniga tadbqiq etish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

Ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyatda undan foydalana olishi;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalarini qo'llay bilishi, axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ilmiy tadqiqotlar asosida ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

ijodiy guruh faoliyatini tashkil qilish;

badiiy estetik didga va uni tadbqiq qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

dizayn obektlarini loyihalash, dizayn konsepsiyasini tuzish, dizayn reklamalarining loyihaviy chizma va eskizlarini yaratish;

plakat va shiriftni loyihalashda uslublarini to'g'ri qo'llash va uni amaliyotga tadbiq etish,

ixtisoslikka bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishi;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashisha olishi;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.**

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yukdamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00.		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1620</b>	<b>54</b>	
1.01.	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02.	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03.	RD1314	Reklama dizayni	420	14	1,2,3
1.04.	GDSO'1316	Grafika dizaynda semiotika o'rni	480	16	1,2,3
1.05.	RAVS1316	Reklama- aloqa vositasifatida	480	16	1,2,3
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>2,3</b>
		<i>Tanlov fanlari</i>	360	12	2,3
	Kvalifikatsiya:	Pedagog-tadqiqotchi, amaliy grafik loyhalovchi dizayner			
		<b>Jami</b>	<b>1980</b>	<b>66</b>	
3.00.		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1620</b>	<b>54</b>	<b>1,2,3,4</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

**Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, muzey, muzey-qo'riqxonona, virtual muzey, fond, eksponat, ekspozitsiya, ko'rgazma, konservatsiya, ta'mirlash, ekspertiza, atribusiya, menejment, marketing, imidj, kommunikatsiya, audiogid, sensorli kiosk, madaniy meros, kolleksiya, badiiy loyihalash, madaniy turizm, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariy.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQLGAN:**

**Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti**

Rektor  A. Mirzoraximov  
2024-yil " \_\_\_\_\_"  
M.O.

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**

Rektor  N. Sayfullayev  
2024-yil " \_\_\_\_\_"  
M.O.

**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  M. Boltabayev  
2024-yil " \_\_\_\_\_"  
M.O.

**O'zbekiston Badiiy akademiyasi**

Rais  A. Nuridinov  
2024-yil " \_\_\_\_\_"  
M.O.

**MCHJ "ZIYNAT DIZAYN"**  
Rahbar  Sh. Erkaboyev  
2024-yil " \_\_\_\_\_"  
M. O.